IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

MAXMATQULOV ABDULLANING IJODIY FAOLIYATI VA ULARDAN PARCHALAR

Men Maxmatqulov Abdulla Sayfulla o'g'li 1998-yilning 5-dekabrida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Ingichka qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilganman. Guliston davlat universitetining Sirtqi bo'lim Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishida 4-bosqich talabasiman. Dehqonobod tumanidagi 52-maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelaman. 2022-yil Yosh ijodkorlarning zomin seminari ishtirokchisiman. 2022-yil "Yosh kitobxon" tanlovining 20-30 yosh toifasida tuman bosqichida 2-o'rinni oldim. Adabiyotning asosan she'riyat yo'nalishida ijod qilaman. Ba'zan badiiy maqola va hikoyalar yozib turaman. She'rlarim GuDU ning "Universitet ovozi" gazetasida chop etilib turadi. Telegram kanallarida o'tkazilib turadigan turli "audio she'r" tanlovlarida g'olib bo'lganman She'rlarim "Hilol-3" to'plamida ham chop etilyapdi.

Oy va gul

Bahor keldi qishning to'rida,
Muzlab yotgan Sedan ko'liga...
Hammayoqda pag'a oppoq qor,
Tasiri yo'q ko'lning tubiga.

Jimitdayin nilufargul bor,
Go'yo unga olam begona...
Na qish unga, na bahor bekor,
U o'zgacha, o'zi yagona!

Injiqqina odati ham bor,
Shu mitticha yurakchasiga
Bermay qo'ysang bormi e'tibor,
Arazlaydi bo'lakchasiga!..

Ko'l tagida tug'ildi o'zi,
Qahratonning qoq o'rtasida.
Samolarni ko'zlaydi ko'zi,
Yalqovgina shu jussasiga.

Bir ajoyib ochilgan yuzi,
Ko'zing tushsa, sevmaslik mahol!
Iforiga mast, bemor o'zi,
Oshiqlarin yo'latmas zinhor!

Yig'lab qolar ba'zi-ba'zida,
Sinoatin bilmaydi hech kim.
Bir to'p baliq visol dardida
Atrofida aylanar epkin...

Asli unga makon bo'lishga
Ko'lning yuzi munosib edi.
Ammo, taqdir erta kelishga
Loyiq ko'rdi shu jajji gulni.

Xayol surib qolar ba'zida,
Uzoq-uzoq o'ylarga tolib...
Nelarnidir istab ko'nglida,
Ma'yusgina bo'ladi qolib...

Kimni intiq kutmoqda asli,
So'rasangiz bilmaydi o'zi...
Ammo, kutar kimnidir asti
Kutishdan ham tolmaydi ko'zi.

Shunday o'tar kunlari birday,
Ko'zi tushdi bir kuni oyga!
Kutganini topdimi, bilmam,

Quvonchlari sig'masdi ko'lga!

Oy ham ko'rdi to'satdan uni,
Ko'l tagida nilufargulni...
Oshiq bo'ldi o'sha on behol,
Nur taratib yoritdi ko'lni!

Bilasizmi oyning nurida
Shunday go'zal porladi jajji!..
O'sha fursat ko'rmadingiz-da
Bizning ajib mittichamizni!..

Oy intildi sevgili tomon,
Ammo, qaydan yetardi unga?!
U osmonda, bu yerda bo'lsa,
Ertakda ham ev bo'larkan-da!?

Nilufargul oyga talpindi,
Biroq muzlik qafasi bunda...
Oy u tomon, gul bu tomonda,
Salomlashdi ikki qalb tunda!..

Kun yorishdi... Ana ayriliq
Alam soldi ikki oraga...
Tun keldi-yu, mana baribir
Visol nasib diliporaga...

Oy osmonda, gul esa yerda,
Sirlashardi go'yo parvona...
Oy osmonda, gul esa yerda
Yig'lashardi sekin, pinhona...

Shunday bizning ikki oshiqning
Taqdiriyam o'zga, g'aroyib...
Yetolmasdan bir-birlariga
Tunlar quvnab sirlashar doyim...

Kun ayriliq solar o'rtaga,
Tun visolga eng so'nggi chora!..
Shunday o'tar soatlar, onlar,
Yillar esa o'tmay ovvora...

Hali kelib issiq bahorlar,
Muz ham erib bitadi balkim...
Oy sho'ng'iydi ko'lning tubiga,
Gul ham chiqar ko'l uzra qalqib...

Hozir esa bizning bahorlar,
Ikki yonda ikkov ovora...
Kun ayriliq solar o'rtaga,
Tun visolga eng so'nggi chora...

Abdulla Maxmatqul (Turon yo'lbarsi)

Yomg'ir

Shamollar yelkamdan ko'tar dardimni,
G'amlarim yuk bo'lib ezdi-ku tanim...
Bardoshim yetmasov sitamlaringni
Shunchaki yengmoqqa yetmaydi sabrim...

Ko'ngil vulqonidan otilar alam,
Qasdimni zo'r berib she'rdan olaman!
Barini yozmoqqa yetmaydi qalam,
Men endi, baribir, sen-la qolaman...

Tunlari oy bo'lib yo'ling yoritgum...
Kunduz quyosh bo'lib, kunda yonaman!

Ishqing-la eralar, yilni qaritgum...
Kel desang lahzalar, onda kelaman!

Men yolg'iz o'zinga o'rganib bo'ldim,
Cho'kdim qarog'ingning tub-tublariga!..
Dunyolar yo'limni to'ssa ham endi
Meni qaytarolmas manzillaringdan...

Shunchaki, borimcha yashagim keldi,
Sevsam ham, sevgimdan sevilsam deyman!..
Armonlar sharpaday yo'q bo'lib ketsa,
Quvilsam, do'zaxdan quvilsam deyman...